| <b>Dadaboyeva Marguba Mamasoliyevna</b>                                                                                                                                      |      |
| Eko va agro-turizmga raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqishning istiqbollari .....                                                                                      | 1212 |
| <b>Nurfayziyeva Mohinur Zayniddinovna</b>                                                                                                                                    |      |
| The importance of the cluster system in the agricultural field .....                                                                                                         | 1217 |
| <b>Sherkulov Shokhrux Erkin o'g'li</b>                                                                                                                                       |      |
| Qishloq xo'jaligi sug'urtalash tizimini takomillashtirish yo'llari .....                                                                                                     | 1221 |
| <b>Mardonov Mashrab Mansurovich, Muxtorov Abduxolik Abdusalimovich</b>                                                                                                       |      |
| Aksiz solig'i amaliyotining genezisi, milliy xususiyatlari, turlari va vazifalarining nazariy jihatlarini .....                                                              | 1225 |
| <b>Shodiyev Olimjon Abduraxmonovich</b>                                                                                                                                      |      |
| Iqtisodiyotning real sektor tushunchasi, uning tarkibi va iqtisodiyotdagi ahamiyati .....                                                                                    | 1230 |
| <b>Mahmudov Nurali Komilovich</b>                                                                                                                                            |      |
| Korporativ moliya tizimini rivojlantirishda raqamli moliya vositalari va texnologiyalarning integratsiyasi .....                                                             | 1241 |
| <b>Xalbekov Ozodbek Xudoykulovich</b>                                                                                                                                        |      |
| The influence of tour interpretation on perceived heritage values: a comparative analysis of tourists with and without guided interpretation at a heritage destination ..... | 1245 |
| <b>Shokhnigorbegim Juraeva</b>                                                                                                                                               |      |
| Raqamli iqtisodiyot sharoitida aloqa xizmatlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish .....                              | 1252 |
| <b>Xazratov Abror Panjiyevich</b>                                                                                                                                            |      |
| Madaniy meros obyektlari asosida barqaror turizmni rivojlantirish strategiyalari .....                                                                                       | 1257 |
| <b>Abriev Zoirjon</b>                                                                                                                                                        |      |
| Пути инновационного развития национальной экономики .....                                                                                                                    | 1262 |
| <b>Жураев Тошболта Тухтаевич</b>                                                                                                                                             |      |
| Hududlarda turizmni rivojlantirishda to'siqsiz, barqaror turizmni tashkil etish zarurati .....                                                                               | 1267 |
| <b>Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna</b>                                                                                                                                       |      |
| Application of ifrs in budgetary accounting .....                                                                                                                            | 1272 |
| <b>G. Djambakieva</b>                                                                                                                                                        |      |
| Transport xizmatlari sektorining rivojlanishini statistik tahlili: xorazm viloyati misolida .....                                                                            | 1276 |
| <b>Raximov Alisher Ibragimovich</b>                                                                                                                                          |      |
| O'zbekistonda 2024-yil davomida yirik soliq to'lovchilarni soliq ma'murchiligi tahlili .....                                                                                 | 1281 |
| <b>Xushatov Nuriddin Maxmatqulovich</b>                                                                                                                                      |      |
| Zamonaviy ta'lim sifatini baholashning nazariy-metodologik asoslari .....                                                                                                    | 1288 |
| <b>Rahimova Qutlibika Ergashevna</b>                                                                                                                                         |      |
| Chakana va ulgurji savdo korxonalari faoliyatini rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni baholash .....                                                                      | 1293 |
| <b>Yuldasheva Gulmira</b>                                                                                                                                                    |      |
| Zamonaviy axborot tizimlari orqali soliq qarzдорligini undirish mexanizmining takomillashtirish yo'llari .....                                                               | 1296 |
| <b>Maxmadustov Jalol Maxmadustovich</b>                                                                                                                                      |      |
| Hududlarda pillachilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va imkoniyatlari .....                                                                                          | 1303 |
| <b>G'oziyeva Aziza Abdusalomovna</b>                                                                                                                                         |      |
| Korxonaning investitsion jozibadorligi oshirish yo'llari .....                                                                                                               | 1313 |
| <b>Axtamova Parizod Oybek qizi</b>                                                                                                                                           |      |
| Raqamli texnologiyalar yordamida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari .....                                                                                    | 1319 |
| <b>Adilova Zulfiya Djavdatovna, Shoev Alim Xalmuratovich</b>                                                                                                                 |      |



|                                                                                                                                        |      |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| Yog' – moy sanoati korxonalarida soliqlar hisobi va auditi jarayonlarida tahliliy amallardan foydalanish samaradorligini oshirish..... | 1327 |
| <b>A'zamova Aziza Olimjon qizi</b>                                                                                                     |      |
| Qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyati iqtisodiy samaradorligini oshirishning xorij tajribasi.....                           | 1334 |
| <b>Umirova Gulmira Shodiboy qizi</b>                                                                                                   |      |
| Xalqaro moliya-kredit institutlar bilan hamkorlikning iqtisodiy-huquqiy asoslari .....                                                 | 1343 |
| <b>Qosimov Bobur Sobirovich</b>                                                                                                        |      |
| Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda yengil sanoat eksporti diversifikatsiyasining roli va yo'nalishlari.....                          | 1347 |
| <b>Otamurodov Shavkat Nusratillayevich, Eshqulova Nasiba Normo'minovna</b>                                                             |      |
| Система раннего предупреждения о снижении финансовой устойчивости предприятия на основе ключевых показателей эффективности (KPI).....  | 1359 |
| <b>Тажибаева Кизларгул Ажиниязовна</b>                                                                                                 |      |
| Tijorat banklarining aktivlari portfelini samaradorligini mustahkamlashda xorijiy mamlakatlar tajribasi.....                           | 1368 |
| <b>Xojiyev Jaxongir Dushabayevich</b>                                                                                                  |      |
| Soliq tizimida soliq riskini baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish uslubi.....                                       | 1374 |
| <b>Nasimov Ravshanjon Azimovich</b>                                                                                                    |      |



# SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH VA BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH USLUBIYOTI

**Nasimov Ravshanjon Azimovich**

PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada jahon amaliyotida anchadan buyon amalga oshirib kelinayotgan soliq riskini baholash amaliyoti respublikamiz soliq tizimida ham qo'llanila boshlaganiga ko'p bo'lmagan bo'lsa-da, bu borada ma'lum darajada tajriba to'plandi. Albatta, soliq riskini baholash uchun uni amalga oshirish uslubiyatini to'g'ri aniqlab olish muhim sanaladi. Bunda soliq xavfini baholash va soliq to'lovchilarni insofilik mezonlari asosida segmentlash tizimini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Soliqqa tortishning rivojlanish tendensiyalari bo'yicha jahon amaliyotida adolatli soliqqa tortish amaliyotini kuchaytirishga qaratilgan umumiy jarayonlarni kuzatish mumkin. Bu jarayonning ajralmas qismini davlat budjetiga soliq tushumlarini jalb qilishning barqaror tizimini mustahkamlash, shuningdek, budjetga soliq tushumlarining belgilangan miqdorda tushmay qolish xavflarini baholash, uning sabablarini aniqlash hamda bu boradagi ishlarni nazariy va amaliy jihatdan asoslash tashkil etadi. Biz ma'lumotlarning tegishli soliq stavkasi darajasiga hech qanday ta'sir ko'rsatmasligini aniqladik.

**Kalit so'zlar:** soliq stavkasi, soliq hisoboti, soliq riski, soliq stavkalari, budjeti xarajatlari, resurs soliqlari, yer solig'i, mahalliy soliqlar, soliq, budjet, soliq imtiyozlari.

**Abstract:** The article discusses the practice of assessing tax risk, which has been practiced in world practice for a long time, and has recently been applied in the tax system of our republic, but some experience has been gained in this regard. Of course, it is important to correctly determine the methodology for assessing tax risk. In this regard, the introduction of a system for assessing tax risk and segmenting taxpayers based on the criteria of fairness is of great importance. In terms of the development trends of taxation, one can see general processes aimed at strengthening fair taxation practices in world practice. An integral part of this process, along with strengthening a stable system of attracting tax revenues to the state budget, is the assessment of the risks of tax revenues not reaching the budget in the prescribed amount, identifying its causes, and work on this issue is provided both theoretically and practically. We determine that the data does not have any effect on the level of the relevant tax rate.

**Key words:** tax rate, tax reporting, tax risk, tax rates, budget expenditures, resource taxes, land tax, local taxes, tax, budget, tax incentives.

**Аннотация:** В статье рассматривается практика оценки налогового риска, которая давно практикуется в мировой практике, и в налоговой системе нашей республики применяется недавно, но определенный опыт в этом плане накоплен. Конечно, важно правильно определить методику оценки налогового риска. В этой связи большое значение имеет внедрение системы оценки налогового риска и сегментации налогоплательщиков по критериям справедливости. С точки зрения тенденций развития налогообложения можно увидеть общие процессы, направленные на укрепление справедливой налоговой практики в мировой практике. Неотъемлемой частью этого процесса, наряду с укреплением устойчивой системы привлечения налоговых поступлений в государственный бюджет, является оценка рисков недопоступления налоговых поступлений в установленном объеме в бюджет, выявление причин этого, и работа по этому вопросу ведется как в теоретическом, так и в практическом плане. Определено, что данные не оказывают никакого влияния на уровень соответствующей налоговой ставки.

**Ключевые слова:** налоговая ставка, налоговая отчетность, налоговый риск, налоговые ставки, расходы бюджета, ресурсные налоги, земельный налог, местные налоги, налог, бюджет, налоговые льготы.



## KIRISH

Yangi O'zbekiston sharoitida soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirish, ularda ishlab chiqarish hajmini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar bilan bir qatorda, yuzaga keladigan soliq xavfini optimal baholash orqali davlat budjetining zarar ko'rish holatlarini kamaytirishga qaratilgan amaliy choralarni samarali amalga oshirishga keng e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyuldagi "Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5490-son<sup>1</sup> Farmoni hamda 2019-yil 10-iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4389-son<sup>2</sup> qarorida respublikamiz soliq tizimida soliq xavfini baholash va soliq to'lovchilarni insofilik mezonlari asosida segmentlash tizimini joriy etish, soliq to'lovchilarning iqtisodiy faoliyatini ularning moliyaviy va soliq hisobotlari asosida baholash, shuningdek ular duch kelishi mumkin bo'lgan turli iqtisodiy risklarni aniqlashning turli mezonlarini ishlab chiqish belgilab berilgan. Soliq risklarini aniqlab berishga xizmat qiluvchi mezonlar esa soliq to'lovchilarning turli ko'rsatkichlarini o'zaro solishtirish orqali aniqlanadi. Ushbu vazifalar ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonlik iqtisodchi olim S. Elmirzaev 2018-yildagi ilmiy tadqiqotlarida soliq riskini "soliq munosabatlarida qatnashuvchi subyektlarning o'z majburiyatlarini bajarish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan va soliq to'lovchilar hamda davlat budjeti uchun moliyaviy yo'qotishlar xavfini keltirib chiqaruvchi hodisa" deb ta'riflagan. Unga ko'ra, soliq risklari avvalo subyektlar bo'yicha tasniflanadi, chunki soliq munosabatlari davlat va soliq to'lovchilar o'rtasidagi o'zaro aloqalar natijasida yuzaga keladi va soliq riski tushunchasiga ikki xil nuqtayi nazardan yondashish mumkin.

Shuningdek, o'zbek olimlaridan Sh. Boboev 2020-yildagi tadqiqotlarida soliqlarni prognoz qilish jarayoni soliq riski bilan doimiy bog'liq bo'lib, agar soliq riski to'g'ri baholansa, soliqlarni prognoz qilish jarayonidagi xatolar kamayadi hamda prognoz ko'rsatkichlarining haqiqiy soliq tushumlariga mosligi ta'minlanadi, deb ta'kidlaydi.

Risk tushunchasi turli olimlar tomonidan har xil nuqtayi nazardan talqin etilgan. Masalan, S. I. Ojegov va N. Y. Shvedova 2006-yilda riskni "muvaffaqiyatga intilish, baxtli hodisa, umid" ma'nosida izohlagan bo'lsa, V. M. Usoskin 1994-yilda riskni doimo noaniqlik bilan bog'liq bo'lib, oldindan ko'ra bilish qiyin yoki mumkin bo'lmagan voqealar bilan uzviy aloqada deb hisoblagan. V. T. Sevruc esa 2006-yilda riskni zarar ko'rish yoki manfaatni yo'qotish ehtimoli o'lchovi sifatida ta'riflagan. Shu bilan birga, P. G. Grabovoy, S. N. Petrova va S. I. Poltavtsev 2006-yilda riskni korxona resurslarining bir qismini yo'qotish yoki daromad ola olmaslik, qo'shimcha xarajatlar qilish xavfi deb belgilagan. O. I. Lavrushin 2007-yilda bank riskini ehtimoliy hodisaning qiymat o'lchovi bo'lib, yo'qotishlarga olib keluvchi hodisa sifatida tushuntirgan. G. Panova 2014-yilda riskni kutilmagan hodisalar yuzaga kelganida yo'qotish xavfi yoki imkoniyati deb ta'riflagan, J. B. Sey esa 2007-yilda riskni foydaning faqat bir qismini shakllantiruvchi omil sifatida izohlagan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usul yordamida soliq riskining tadbirkorlik subyektlariga ta'siri bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilinib, ilmiy xulosalar berildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyuldagi "Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5490-son<sup>3</sup> Farmoni hamda 2019-yil 10-iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4389-son<sup>4</sup> qarori bilan tasdiqlangan "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasi"da "xorijiy davlatlar tajribasi hisobga olingan holda, tavakkalchiliklarni baholashning zamonaviy usullarini joriy qilish, iqtisodiy faoliyat sohasida xufiyona aylanma va nazorat qilinmaydigan daromadlar ko'lamini qisqartirish, soliq qonunchiligi sohasidan tashqarida faoliyat yuritayotgan shaxslarni norasmiy sektordan chiqishiga (qonuniylashtirishiga) ko'maklashish, nazorat faoliyatini amalga oshirishda tavakkalchiliklarni tahlil

1 <https://lex.uz/ru/docs/-3839746>

2 <https://lex.uz/docs/-4415356>

3 <https://lex.uz/ru/docs/-3839746>

4 <https://lex.uz/docs/-4415356>



qilish va boshqarishning zamonaviy tizimini joriy etish, soliq to'lovchilarni segmentlash asosida davlat soliq xizmati organlarining eng maqbul modelini joriy etish, soliq xizmati organlarida zamonaviy biznes tahlil (Business Intelligence) tizimini, shuningdek, strategik va protsessual boshqaruvni joriy etish" kabi bir qator strategik vazifalar belgilab berilgan.

Dastlab ushbu yo'nalishdagi mavjud muammolar xususida fikr bildirish lozim bo'lsa, birinchi navbatda, soliq to'lovchilarning soliq xavfini aniqlashda faoliyati shubhali bo'lgan korxonalarni aniqlashning murakkabligi muammosi mavjud. Bizningcha, bu jarayonni samarali amalga oshirish uchun "shubhali operatsiya" va "shubhali korxona" tushunchalariga aniqlik kiritish zarur. Jarayonning mazmunidan kelib chiqib, biz ushbu tushunchalarga quyidagi mualliflik ta'rifini taklif etamiz. Ya'ni, shubhali operatsiya – soliq to'lovchilarning (soliq agentlarining) rasmiylashtirilgan elektron hisobvara-faktura va/yoki bank operatsiyalarining xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati xususiyatiga va turiga, shuningdek xarid qilinadigan va realizatsiya qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) nomenklaturasiga muvofiq emasligi, bitim tuzishda soliq to'lovchining asosiy maqsadi soliqlarni to'lamaslik bo'lishi hamda bitim (operatsiya) bo'yicha majburiyat shartnoma tarafi bo'lmagan shaxs yoki bitimni (operatsiyani) bajarish majburiyati shartnoma yoki qonun bo'yicha yuklatilmagan shaxs tomonidan bajarilishi bilan izohlanadi. Shubhali korxona esa yagona yoki ustuvor maqsadi asossiz soliq naflarini olish yoki o'zi to'laydigan soliqlar summasini kamaytirish bo'lgan operatsiyalarni yoki operatsiyalar ketma-ketligini amalga oshirgan subyekt deb hisoblanadi.

Shubhali operatsiyalar va ularni amalga oshiruvchi korxonalarni aniqlash Soliq qo'mitasining tegishli departamenti (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari departamenti) tomonidan tashqi manba ma'lumotlarini olish, qayta ishlash va tahlil qilish orqali amalga oshirilishi zarur. Tahlillar natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan shubhali operatsiyalar amalga oshirilganligini aniqlash quyidagi bosqichlardan iborat algoritm asosida tashkil etilishi lozim:

Birinchi bosqich: soliq to'lovchilarning (soliq agentlarining) rasmiylashtirilgan elektron hisobvara-faktura va/yoki bank operatsiyalarining xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati xususiyatiga va turiga, shuningdek xarid qilinadigan va realizatsiya qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) nomenklaturasiga muvofiq emasligi, bitim tuzishda asosiy maqsad qo'shilgan qiymat solig'ini to'lamaslik yoki uni hisobga olish ekanligi, shuningdek bitim (operatsiya) bo'yicha majburiyat shartnoma tarafi bo'lmagan shaxs yoki bitimni (operatsiyani) bajarish majburiyati shartnoma yoki qonun bo'yicha yuklatilmagan shaxs tomonidan bajarilganligini aniqlash;

Ikkinchi bosqich: o'tkazilgan tahlillar natijasida faoliyatida shubhali holatlar aniqlangan, ya'ni tovarlar nomutanosibligi qayd etilgan subyektlarni amalga oshirilgan (EHF va yirik bank aylanmasi) tovar aylanmasiga nisbatan potentsial soliq xavfi summasidan kelib chiqib uch toifaga ajratish;

Uchinchi bosqich: Kameral soliq tekshiruvlari boshqarmasiga faoliyatida tovarlar nomutanosibligi aniqlangan subyektlar bo'yicha tahlil natijalari va boshqa hujjatlarni taqdim etish, dastur orqali kameral soliq tekshiruvi tayinlash to'g'risida topshiriq yuborish hamda shubhali korxonalar ro'yxatiga kiritilgan subyektlar kontragentlarini aniqlash, ularda kameral soliq tekshiruvlarini o'tkazish uchun hududiy soliq idoralariga dastur orqali topshiriq yuborish va ma'lumotlarni umumlashtirish;

To'rtinchi bosqich: faoliyati shubhali deb topilgan subyektlarni tahlika tahlil dasturi orqali segmentlash va DSQning "lozim darajadagi ehtiyotkorlik" rasmiy veb sahifasida "shubhali" korxonalar tarkibiga kiritish uchun Xavfni tahlil qilish va soliq to'lovchilarni segmentlash departamentiga taqdim etish;


Beshinchi bosqich: faoliyati shubhali deb topilgan ma'lumotlarni belgilangan tartibda Xavfni tahlil qilish va soliq to'lovchilarni segmentlash departamentiga taqdim etish;

Oltinchi bosqich: hududiy soliq organlarining yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatish tuzilmalari tomonidan yangi tashkil etilgan subyektlarning ko'rsatilgan yuridik manzilini o'rganish va soliqqa oid huquqbuzarliklar bilan ishlash boshqarmasiga taqdim etish;

Ettinchi bosqich: faoliyati shubhali deb topilgan subyektlarni tahlika tahlil dasturi orqali segmentlash va SQning "lozim darajadagi ehtiyotkorlik" rasmiy veb sahifasida "shubhali" korxonalar tarkibiga kiritish uchun Xavfni tahlil qilish va soliq to'lovchilarni segmentlash departamentiga taqdim etish.

O'zbekiston soliq tizimida soliq riskini boshqarishning yagona uslubiyotining yo'qligi yoki mavjudlarining o'zaro bog'lanmaganligi muhim muammolardan biri hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, biz "soliq riskini boshqarish uslubiyoti"ni taklif qilmoqdamiz. Quyidagi 1-rasmda ushbu uslubiyotning mazmuni aks ettirilgan. Soliq riskini boshqarish faqat davlat budjeti manfaatlaridan kelib chiqib emas, balki soliq to'lovchining soliq riski nuqtayi nazaridan ham amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Soliq to'lovchining soliq riskini boshqarishda xarajatlarni maqbullashtirish, hisob siyosati va moliyaviy strategiyani moslashtirish, risk omillarini aniqlash va ularni sug'urtalash, faoliyatni raqamlashtirish, kontragentlarni monitoring qilish hamda uning asosida zararni aniqlab borish yo'nalishlarida ish olib borish o'z samarasini beradi deb hisoblaymiz (1-rasm).






2-rasm. Soliq tizimida soliq riskini aniqlashga tizimli modeli<sup>6</sup>

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yuqorida mazmuni va mohiyati bayon etilgan "soliq riskini boshqarish uslubi" soliq riskini boshqarishda soliq to'lovchi va davlat budjeti manfaatlari nuqtayi nazaridan qanday yondashuv zarurligini ko'rsatib bersa, 2-rasmda keltirilgan va biz tomonimizdan taklif etilayotgan "Soliq tizimida soliq riskini aniqlashning tizimli modeli" esa, soliq tizimida davlat soliq siyosatining soliq riskiga oid umumiy yo'nalishlarini tavsiflab beradi. Ushbu model o'z ichiga oltita komponentni qamrab oladi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi: soliq xavfini aniqlash mezonlarini iqtisodiy va boshqa qonunlar mazmuniga bog'lash; soliq to'lovchilarning soliq qarzdorligi va soliq xavfi o'rtasidagi bog'liqlikni baholash; soliq imtiyozlarining budjet va iqtisodiyotga samaradorligini o'lchash; soliq xavfini aniqlash algoritmini tizimlashtirish mazmuniga bog'lash; soliq tushumi prognozi va daromadlarni rejalashtirishning muvofiqligini ta'minlash; fors-major holatlarini aniqlashning dasturiy mahsulotini yaratish.

Bu bloklarning har biri esa o'zida bir necha muhim mezonli elementlarni qamrab olib, ularni baholab borish ushbu modelning ishlash mexanizmini ta'minlaydi. Mazkur modelning ilmiy-amaliy ahamiyati shundan iboratki, davlat o'zining soliq siyosatida soliq ma'muriyatchiligi doirasida boshqaruv elementlarining samaradorligini ta'minlash, davlat budjetiga soliq tushumlarining barqaror tushishini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim blokli omillarni o'zaro bog'liqlik va tizimli asosida baholab borish orqali umumiy samaradorlikka erishishga yordam beradi.

Demak, faoliyatni segmentlash soliq riskini aniqlash va uni boshqarishning dastlabki muhim bosqichi vazifasini bajaradi. Shundan kelib chiqib, bugungi kunda respublikamiz soliq tizimida amalda qo'llanilib kelinayotgan soliq to'lovchilar faoliyatini segmentlash mexanizmini yanada takomillashtirishni o'z ichiga olgan "xavfni tahlil qilish va soliq to'lovchilarni segmentlash tizimini takomillashtirish" modelini ishlab chiqdik (3-rasm).

6 Muallif tomonidan tuzilgan.



3-rasm. Xavfni tahlil qilish va soliq to'lovchilarni segmentlash tizimini takomillashtirish<sup>7</sup>

Mazkur 3-rasmda mazmuni va ichki mohiyati keltirilgan xavfni tahlil qilish va soliq to'lovchilarni segmentlash tizimi elementlariga e'tibor beradigan bo'lsak, ularning har birini alohida tahlil qilish hamda ularni o'zaro tizim sifatida baholash soliq xavfini to'g'ri tahlil qilishni ta'minlaydi. Tahlika-tahlil asosida soliq xavfini baholab borishda esa, taklif etilayotgan har bir elementni tizimli baholash lozim bo'ladi. Ana shundagina, soliq riskini boshqarish samaradorligini ta'minlash mumkin.

Ma'lumki, jahon amaliyotida soliq riskini boshqarishda "FeedBack" tizimi har bir davlatning milliy xususiyatlaridan kelib chiqib keng qo'llaniladi. "FeedBack" tushunchasi inglizcha termin bo'lib, mohiyatan "teskari aloqa" ma'nosini anglatadi va asosan texnika hamda muhandislik tizimlarida yuzaga kelgan. Soliq riskini boshqarishda ushbu tizimdan foydalanish katta samara beradi, deb hisoblaymiz. O'zbekiston soliq tizimida ham "FeedBack" tizimidan foydalanish bo'yicha strategik rejalar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, amalda bu tizim hali joriy etilmagan. Shu sababli, biz ushbu tizimdan foydalanish mexanizmini joriy etish bo'yicha o'z ilmiy tavsiyalarimizni izohlaymiz.

Soliq riskini boshqarishda "FeedBack" tizimidan foydalanish soliq xavfini baholashga ta'sir etuvchi jarayonlarni qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Ushbu tizimni amalga oshirishning asosiy manbasi "soliq tekshiruvi" dasturiy mahsulotining ma'lumotlari bo'lishi kerak.

"FeedBack" tizimida nomzodlarni shakllantirish tartibi quyidagicha amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

Birinchidan, jarayon bir qismdan iborat bo'lib, mezon uchun birlashtirilgan xodim tomonidan amalga oshiriladi: mavjud mezonlarning samaradorligini baholash;

tekshirish jarayonida yangi aniqlangan soliq xavflarini baholash.

Bunda "mezon samaradorligi belgilangan foizdan past" bo'lgan hollarda baholash amalga oshiriladi. "FeedBack" yakunida xodim tomonidan belgilangan shakldagi xulosa rasmiylashtiriladi va ushbu xulosada quyidagilarga aniqlik kiritiladi:

Mezonlarga tegishli o'zgartirish kiritish;

Mezonda xatolik mavjud emasligi;

Normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish kiritish.

Tekshirish jarayonida yangi aniqlangan soliq xavflarini baholash "yangi holat" mavjud bo'lgan hollarda amalga oshiriladi. Mavjud mezonlarning samaradorligini baholash bo'yicha xulosa har bir mezon uchun

7 Muallif tomonidan tuzilgan.




“FeedBack” o’tkazgan xodim tomonidan har oyda, keyingi oyning belgilangan sanasida rasmiylashtiriladi va Departament direktori imzosi bilan ishchi guruhga taqdim etiladi. Shuningdek, tekshirishda yangi aniqlangan soliq xavflarini baholash bo’yicha xulosa har bir viloyat uchun “FeedBack” o’tkazgan xodim tomonidan har oyda, keyingi oyning belgilangan sanasida rasmiylashtirilib, Departament direktori imzosi bilan ishchi guruhga kiritiladi.

Ishchi guruh tomonidan munosabat bildirilgan har bir xulosa tizimda saqlanadi. “FeedBack” o’tkazgan xodim tomonidan rasmiylashtirilgan dastlabki xulosalar tizimda saqlanadi. Belgilangan sana esa ishchi guruh tomonidan tasdiqlanadi.

“FeedBack” jarayonining yakuni quyidagicha amalga oshiriladi:

Ishchi guruhga kiritilgan xulosalar tegishligi bo’yicha ijrochilarga yo’naltiriladi. Mavjud mezonlarning samaradorligini baholash bo’yicha mezonlarga tegishli o’zgartirish kiritish qismi — “xavfni tahlil qilish va soliq to’lovchilarni segmentlash” departamentiga, normativ-huquqiy hujjatlarga o’zgartirish kiritish qismi — “soliq solish metodologiyasi” boshqarmasiga, mezonda xatolik mavjud emasligi qismi esa — tekshiruvchi tomonidan amalga oshirilgan ishlarni o’rganish uchun “ichki audit” departamentiga taqdim qilinadi.

Soliq to’lovchilarning soliq xavfi darajasi qayta baholanganda, “mezonda xatolik mavjud emasligi” qismidan tashqari barcha holatlarning tekshirilgan davrdagi soliq xavfi natijalari qayta baholanganda aniqlangan soliq xavfi natijasidan chegirilishi lozim bo’ladi (4-rasm).



4-rasm. Yakunlangan tadbirlar tahlili (Feedback) ishlash sxemasi<sup>8</sup>



O'zbekiston soliq tizimida soliq riskini boshqarishda yana bir muhim e'tibor qaratilishi va takomillashtirilishi zarur bo'lgan jarayonlardan biri bu soliq to'lovchilarning kontragentlarni tanlash chog'ida lozim darajadagi ehtiyotkorlikka amal qilishi va uning oqibatida soliq to'lovchi darajasida (birinchi bo'g'inda) soliq xavfining yuzaga kelishini baholash masalasidir. Bizning fikrimizcha, buning uchun kontragentlar bo'yicha soliq to'lovchilarga soliq organlarida mavjud ma'lumotlarni qo'shimcha ravishda taqdim etish maqsadida elektron hisobvara-faktura (EHF)da etkazib beruvchi va xaridor rekvizitlari tagida ularning soliq uzilishi koeffitsiyentini 0,00 dan 1,00 gacha belgilash va ushbu ma'lumotlarni joylashtirish zarur bo'ladi.

Taklifimizga ko'ra, koeffitsiyentlar quyidagi tartibda aks ettiriladi: 0,00 dan 0,20 gacha bo'lganda "yashil" rangda; 0,21 dan 0,40 gacha bo'lganda "apelsin" rangda; 0,41 dan 0,60 gacha bo'lganda "och qizil" rangda; 0,61 dan 1,00 gacha bo'lganda esa "to'q qizil" rangda.

Ushbu mezonlarning ahamiyati shundaki, ularni qo'llash orqali qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) bo'yicha soliq uzilish jarayonini aniqlash imkoniyati yaratiladi. Bu esa soliqdan qochish holatlari zanjiri yuzaga kelayotganligidan dalolat berib, uning oldini olish choralari ko'rishga undaydi. Mazmunan qaralganda, soliq uzilishi – bu davlat budjetiga QQS to'lamagan, o'zaro operatsiyalarini EHFda aks ettirmagan yoki soliq organlariga soliq hisobotini taqdim etmagan kontragentlar bilan amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha soliq to'lovchi tomonidan ushbu kontragentlardan olingan EHFlar asosida hisobga olinadigan QQS summalarini o'zining soliq hisobotida aks ettirishidir.

Shuningdek, soliq uzilishini aniqlashda tovarlar (xizmatlar)ni etkazib berishning butun zanjiri bo'ylab ikkinchi, uchinchi va keyingi bo'g'irlarda huquqiy, iqtisodiy yoki boshqa nazorat ostida bo'lgan o'zaro bog'liq kontragentlar tomonidan QQSning budjetga to'lanmaganligi ham inobatga olinishi lozim.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, davlat budjetiga QQS to'lamagan, o'zaro operatsiyalarini EHFda aks ettirmagan yoki soliq organlariga soliq hisobotini taqdim etmagan kontragentlar bilan amalga oshirilgan operatsiyalar soliq riskining oshishiga xizmat qilmoqda. Bu muammoni kamaytirish yoki bartaraf etishning yo'llaridan biri sifatida, fikrimizcha, jarayonni avtomatlashtirish, algoritmlarga asoslangan mezonlarni ishlab chiqish zarur. Bu esa inson omili aralashmagan holda, avtomatik ravishda soliq to'lovchilarning soliq hisobotlaridagi ko'rsatkichlar Soliq qo'mitasida mavjud ma'lumotlar (jumladan, elektron hisobvara-faktura, eksport-import operatsiyalari, onlayn kassa apparati cheklari va boshqalar) bilan solishtirilgan holda tekshiruvdan oldingi tahlilni amalga oshirishga imkon beradi. Shu maqsadda "Avtokameral" dasturiy mahsulotida foydalanilayotgan mezonlarni takomillashtirish talab etiladi.

Fikrimizcha, ushbu mezonlar ichida QQS va foyda solig'i bo'yicha soliq xavfini aniqlash mezonlari algoritmini ishlab chiqish nihoyatda muhim hisoblanadi. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha taklif etilayotgan ushbu mezonlar "Avtokameral" dasturiy mahsuloti orqali soliq xavfini aniqlash imkonini oshiradi, soliq tahlilini to'g'ri amalga oshirishni ta'minlaydi, dasturning mezonlarini shaffoflashtiradi va shu jihatdan ushbu uslubiyot katta ilmiy ahamiyatga ega.

Umumiy olganda, bugungi kunda O'zbekiston soliq tizimida soliq riskini aniqlash, baholash va boshqarish bo'yicha amaliy mexanizmlar doirasida mavjud bir qator muammolarning yechimi sifatida biz ishlab chiqqan ilmiy-amaliy takliflarimiz ilmiy asoslangan bo'lib, ular soliq xavfini boshqarish tizimi samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Soliq riskini baholashdagi jahon amaliyoti respublikamiz soliq tizimida ham qo'llanila boshlaganiga ko'p vaqt bo'lmagan bo'lsa-da, bu borada ma'lum darajada tajriba to'plandi. Albatta, soliq riskini baholash uchun uni amalga oshirish uslubiyatini to'g'ri aniqlab olish muhim sanaladi. Bunda soliq xavfini baholash va soliq to'lovchilarni insofilik mezonlari asosida segmentlash tizimini joriy etish katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois, respublikamiz qonunchiligida soliq tizimida soliq xavfini baholash hamda soliq to'lovchilarni insofilik mezonlari asosida segmentlash tizimini joriy etish vazifalari belgilab berilgan.

Asosiy e'tibor esa soliq to'lovchilarning iqtisodiy faoliyatini ularning moliyaviy va soliq hisobotlari asosida baholash, shuningdek ular duch kelishi mumkin bo'lgan turli iqtisodiy risklarni aniqlash mezonlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Soliq risklarini aniqlashga xizmat qiluvchi mezonlar soliq to'lovchilarning turli ko'rsatkichlarini o'zaro solishtirish orqali aniqlanishi ustuvor uslubiyat sifatida belgilangan. Soliq to'lovchilarning soliq riskini baholash uchun esa, uning mohiyatini anglatuvchi bir qator iqtisodiy holatlarni aniqlash talab etiladi.

Umumiy xulosa qilib aytganda, soliq turlari bo'yicha soliq to'lovchilarda soliq xavfini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan jarayonlarni to'g'ri baholash, ularni amalga oshirish bosqichlarini ilmiy-uslubiy jihatdan to'g'ri tashkil etish, shuningdek soliq turlari bo'yicha soliq xavfini aniqlash mezonlarini aniq belgilash va ulardan samarali foydalanish soliq xavfini aniqlash hamda uning darajasini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rishda katta ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси – Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёт уйи 2020.- 640 б.
2. Насимов Р.А. “Солиқ юкини оптималлаштириш йўллари” (phd) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. – Тошкент, 2024.
3. S.Elmirzaev korporativ soliqlarni rejalashtirish. O'quv qo'llanma. – T.:, 2018. – 59 bet.
4. Sh.B.Boboev. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo'yicha tushumlarni prognoz qilish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati. Toshkent. 2020 yil. 19 b.
5. Ojegov S.I., Shvedova N.Yu. Tolkoviy slovar russkogo yazika. — M.: OOO —A TEMPll, 2006.
6. Usoskin V.M. Sovremenniy kommercheskiy bank: upravlenie i operasii. - M.: IPS «vazar-Ferro», 1994.
7. Sevruk V.T. Bankovskie riski. M.: —Delo-LTDll, 2006.
8. Grabovoy P.G., Petrova S.N., Poltavtsev S.I. Riski v sovremennom biznesa. M.: —Alans, 2006.
9. Lavrushin O.I. Bankovskie riski. - M.: —Knorus, 2007.
10. Panova G.S. Kreditnaya politika kommercheskogo banka. – M.: —Yurayt, 2014.
11. Sey, J.B. Traktat po politicheskoy ekonomii. – M.: —Direkt-Media, 2007.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---